

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI
OLIIY MALAKALI ILMIY VA ILMIY-PEDAGOG KADRLARNI MAQSADLI
TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-3365-son [qarori](#) ijrosini ta‘minlash, shuningdek, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim to‘g‘risidagi [nizomga 2-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Abduxakimov va O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri I.Y. Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 19-iyul,
606-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

**Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi
to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-3365-son [qaroriga](#) muvofiq oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash (keyingi o‘rinlarda maqsadli doktorantura deb ataladi) tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

maqsadli doktorantura — bir oliy ta‘lim yoki ilmiy muassasa uchun yetishmayotgan ilmiy darajali kadrlarni boshqa muassasada shartnoma asosida tayyorlash;

buyurtmachi tashkilot — oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarga ehtiyoji mavjud bo‘lgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi, shuningdek, vazirlik, idora yoki tashkilot;

davlatlararo maqsadli doktorantura — O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan muassasa tomonidan boshqa mamlakatning oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi uchun kadrlar tayyorlash;

idora ichidagi maqsadli doktorantura — oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasa tomonidan o'zi idoraviy mansub vazirlik yoki idora tasarrufidagi boshqa tashkilot, oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasa uchun kadrlar tayyorlash;

idoralararo maqsadli doktorantura — oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi tomonidan boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar uchun kadrlar tayyorlash.

3. Maqsadli doktorantura idora ichida, idoralararo hamda davlatlararo shaklda amalga oshiriladi.

4. Doktorantlarni idora ichida va idoralararo maqsadli tayyorlash uchun oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi va buyurtmachi tashkilot hamda doktorant o'rtasida belgilangan tartibda uch tomonlama shartnoma tuziladi.

5. Davlatlararo maqsadli doktorantura xalqaro shartnomalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan tartibga solinadi.

6. Idora ichida va idoralararo maqsadli doktoranturaga qabul qilingan izlanuvchilarga tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilingan izlanuvchilar uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda stipendiya to'lanadi hamda ta'til beriladi.

7. Maqsadli doktoranturaga qabul qilingan doktorant dissertatsiya ishini himoya qilib, davlat namunasidagi tegishli diplomni olganda yoxud uning dissertatsiya ishi doktorantura davrida tegishli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash tomonidan himoyaga qabul qilinganda doktorantura muvaffaqiyatli yakunlangan hisoblanadi.

8. Maqsadli doktorantura mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

2-bob. Maqsadli doktorantura faoliyatini tashkil etish

9. Maqsadli doktoranturaga nomzodlar buyurtmachi tashkilot tomonidan tavsiya etiladi. Bunda, bir o'ringa yuborilayotgan nomzodlarning soni qoida tariqasida kamida ikki nafar bo'lishi lozim.

10. Buyurtmachi tashkilot tegishli mutaxassisliklar bo'yicha ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega professor-o'qituvchilari mavjud hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqot bazasiga ega bo'lgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasiga ma'lum bir ixtisoslik bo'yicha maqsadli doktoranturaga kvota ajratish yuzasidan xat yuboradi.

Xatga buyurtmachi tashkilot birinchi rahbari tomonidan imzolangan maqsadli doktoranturaga kirish uchun nomzodlarga berilgan tavsiyanomalar ilova qilinadi.

11. Oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, tegishli ixtisoslik bo'yicha maqsadli doktoranturani amalga oshirishi yoki amalga oshira olmasligi to'g'risida buyurtmachi tashkilotga O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi **Qonunida** belgilangan muddatlarda yozma javob yuboradi.

12. Maqsadli doktoranturaga qabul qiluvchi oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi har yili 1-mayga qadar o'zlari tizimiga kiradigan vazirlik, idora yoki tashkilotga maqsadli doktoranturaga qabul qilish yuzasidan kvota ajratish bo'yicha murojaat qiladi.

13. Tasarrufida oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi bo'lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar har yili 15-mayga qadar O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar, amaldagi oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarining samaradorligi, ta'lim olayotgan doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar kontingenti, ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlarning samarali ishlari, shuningdek mazkur Nizomda belgilangan, bir nafar ilmiy rahbar hamda bir nafar ilmiy konsultantga birlashtiriladigan doktorantlar sonidan kelib chiqib, keyingi yildan boshlab tayanch doktoranturaga, doktorantura va maqsadli doktoranturaga O'zbekiston Respublikasi Davlat budget mablag'lari hisobiga o'qitish uchun qabul kvotasi bo'yicha asoslangan takliflar bilan murojaat qiladilar.

14. Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bo'yicha qabul kvotasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy o'quv

yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi **nizomga** asosan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi hamda har yili 1-iyundan kechikmasdan tegishli ravishda tasarrufida oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi bo'lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga yuboriladi.

Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tegishli ixtisoslik bo'yicha tasdiqlangan qabul kvotasi to'g'risidagi ma'lumotni tasarrufida bo'lgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasiga har yili 15-iyunga qadar taqdim etadilar.

15. Maqsadli doktoranturaga o'qish uchun talabgorlardan hujjatlar oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi qabul komissiyasi tomonidan har yili 15-sentabrdan 15-oktabrgacha bo'lgan davrda qabul qilinadi.

3-bob. Maqsadli doktoranturaga qabul qiluvchi oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi hamda buyurtmachi tashkilotning huquq va majburiyatlari

16. Maqsadli doktoranturaga qabul qiluvchi oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi quyidagi huquqlarga ega:

doktorantning ilmiy faoliyatini nazorat qilish va hisobot materiallarini so'rab olish;

ilmiy rahbar va konsultantlarning doktorantni xorijiy yetakchi ilmiy markazlarga ilmiy xizmat safariga yuborish to'g'risidagi iltimosnomasi asosida ilmiy xizmat safariga yuborishning maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

shaxsiy rejalarini bajarmagan doktorantlarni doktoranturadan chetlatish va bu haqda buyurtmachi tashkilotga xabar berish. Mazkur masala ushbu muassasaning kollegial organi (ilmiy kengashi, kengashi, ilmiy-texnik kengashi, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengashi va boshqalar) qarori bilan rasmiylashtiriladi.

17. Maqsadli doktoranturaga qabul qiluvchi oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi quyidagi majburiyatlarga ega:

maqsadli doktoranturaga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun magistr darajasi yoki klinik ordinatura (tibbiyot fanlari uchun) yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplomga ega bo'lgan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan ilmiy darajalarga ega bo'lgan shaxslarni tanlov asosida qabul qilishni ta'minlash;

falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun nomzodlarning malakaviy imtihonlarini topshirishi, umumnazariy tayyorgarligi va ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

doktorant bilan ilmiy rahbar yoki konsultant o'rtasida ilmiy izlanishlar bo'yicha jiddiy kelishmovchiliklar yuz berganda doktorantning ilmiy rahbarini yoki konsultantini almashtirish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish. Bunda mazkur masala ushbu muassasaning kollegial organi (ilmiy kengashi, kengashi, ilmiy-texnik kengashi, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengashi va boshqalar) qarori bilan rasmiylashtiriladi;

har yili doktorantning shaxsiy rejasini amalga oshirish to'g'risidagi hisobotini tinglash va hisobot natijalari bo'yicha xulosa tayyorlash hamda uning bir nusxasini buyurtmachiga taqdim etish.

18. Buyurtmachi tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

doktorantning ilmiy faoliyatini nazorat qilish hamda hisobot materiallarini so'rab olish;

dissertatsiya ishini o'z muddatida himoya qila olmagan doktorantlar bilan mehnat munosabatlarini ular bilan kelishgan holda belgilangan tartibda hal etish.

19. Buyurtmachi tashkilot maqsadli doktoranturaga yuborilayotgan nomzodlarning tegishli ixtisoslik bo'yicha tavsiya etilishini, bunda, bir o'ringa

yuborilayotgan nomzodlarning soni qoida tariqasida kamida ikki nafar bo'lishini ta'minlash majburiyatiga ega.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

20. Doktoranturani muvaffaqiyatli yakunlagan shaxs uni o'qishga yuborgan buyurtmachi tashkilotda kamida uch yil ishlab berishi lozim.

Dissertatsiya ishi himoya qilinmaganda mehnat munosabatlari buyurtmachi tashkilot tomonidan doktorant bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21. Maqsadli doktoranturaga kirish imtihonlarini tashkil etish, nomzodlardan talab qilinadigan hujjatlar, o'qish muddati, doktoranturadan chetlatish, ilmiy rahbar va konsultantlarni tayinlash, chetlatish, hujjatlarni rasmiylashtirish, hisobot taqdim etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan tayanch doktorantura va doktoranturaga qo'yilgan talablar va muddatlar asosida amalga oshiriladi.

22. Mazkur Nizom talablariga rioya qilmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi
to'g'risidagi nizomga
ILOVA

Maqsadli doktoranturani amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Mas'ullar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish muddati
1-bosqich	Buyurtmachi tashkilot	1. Tegishli mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasiga maqsadli doktoranturaga kvota ajratish yuzasidan xat yuborish. 2. Xatga buyurtmachi tashkilot birinchi rahbari tomonidan imzolangan maqsadli doktoranturaga kirish uchun nomzodlarga berilgan tavsiyanomalarni ilova qilish.	Har yili 10-aprelga qadar
2-bosqich	Manfaatdor oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi	Tegishli ixtisoslik bo'yicha ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, maqsadli doktoranturani amalga oshirishi yoki amalga oshira olmasligi to'g'risida buyurtmachi tashkilotga yozma javob yuborish.	Har yili 25-aprelga qadar
	Maqsadli doktoranturaga qabul qiluvchi oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi	Tasarrufiga kiradigan vazirlik, idora yoki tashkilotga maqsadli doktoranturaga qabul qilish yuzasidan kvota ajratish bo'yicha murojaat qilish.	Har yili 1-mayga qadar

3-bosqich	Tasarrufida oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik, idora va tashkilotlar	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligiga quyidagilar bo'yicha asoslangan takliflar bilan murojaat qilish:</p> <p>oliy malakali ilmiy, ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar;</p> <p>amaldagi oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarining samaradorligi;</p> <p>ta'lim olayotgan doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar kontingenti, ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlarning samarali ishlari;</p> <p>bitta ilmiy rahbar hamda bitta ilmiy konsultantga birlashtiriladigan doktorantlar sonidan kelib chiqib, keyingi yildan boshlab tayanch doktoranturaga, doktorantura va maqsadli doktoranturaga Davlat budjeti mablag'lari hisobiga o'qitish uchun qabul kvotasi.</p>	Har yili 15-mayga qadar
4-bosqich	Innovatsion rivojlanish vazirligi Vazirlik, idora va tashkilotlar	<p>1. Doktorantura qabul kvotasini tasdiqlash hamda tegishli ravishda tasarrufida oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi bo'lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga yuborish.</p> <p>2. Tegishli ixtisoslik bo'yicha tasdiqlangan qabul kvotasi to'g'risidagi ma'lumotni tasarrufida bo'lgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasiga yetkazish.</p>	Har yili 1-iyungacha qadar Har yili 15-iyungacha qadar
5-bosqich	Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi qabul komissiyasi	Maqsadli doktoranturaga o'qish uchun talabgorlardan hujjatlarni qabul qilish.	Har yili 15-sentabrdan 15-oktabrgacha
6-bosqich	Oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi	Maqsadli doktoranturaga kirish imtihonlarini tashkil etish, nomzodlardan talab qilinadigan hujjatlar, o'qish muddati, doktoranturadan chetlatish, ilmiy rahbar va konsultantlarni tayinlash, chetlatish, hujjatlarni rasmiylashtirish, hisobot taqdim etish.	Belgilangan muddatlarda

**Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan
Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirish
va qo'shimchalar**

1. 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni (O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bundan mustasno) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga fuqarolar bilan teng huquqlarda qabul qilinadi.

2. 8-bandning birinchi xatboshisi quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirilsin:

“So'nggi uch yilda izlanuvchilari o'z vaqtida himoya qilgan ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchilarga OTM yoki ITIning kollegial organi xulosasi asosida beshtadan ko'p bo'lmagan izlanuvchilar birlashtirilishi mumkin”.

3. 14-band quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“OTM va ITM vazirlik va idora tomonidan budget mablag'lari hisobidan ajratilgan kvotalardan tashqari ehtiyoj bo'lgan yo'nalishlariga izlanuvchining to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan qo'shimcha qabul kvotasini shakllantirishi mumkin. To'lov-kontrakt summasi OTM va ITM tegishli bo'ysunuvidagi vazirlik, idora va tashkilot tomonidan belgilanadi”.

4. 44-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Talabgorlar OTM yoki ITM rahbarining har chorakda 5-mart, 5-iyun, 5-sentabr va 5-dekabr gacha e'lon qilinadigan buyrug'i bilan mustaqil izlanuvchilikka rasmiylashtiriladilar. Buyruqda, shuningdek, mustaqil izlanuvchilarning ilmiy rahbarlari va ilmiy konsultantlari (konsultant bo'lgan taqdirda) belgilanadi”.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2019-y., 09/19/606/3457-son)